

BOSHQARUVCHILIK NUTQIDA XORIJIY TILLARNING INGLIZ VA O'ZBEK PSIXOLINGVISTIK MEXANIZMLARI

Xursanova Elnora Xursan qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada boshqaruvchilik nutqida xorijiy tillarning, xususan ingliz va o'zbek tillarining psixolingvistik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutq faoliyatining shakllanish jarayonlari, til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, hamda boshqaruv kommunikatsiyasida til vositalaridan samarali foydalanish masalalari yoritiladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarining psixolingvistik xususiyatlari solishtirilib, rahbarlik nutqining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari boshqaruv jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: boshqaruv nutqi, psixolingvistika, ingliz tili, o'zbek tili, kommunikativ kompetensiya, nutq faoliyati, til va tafakkur, boshqaruv kommunikatsiyasi.

Аннотация. В данной научной статье анализируются психолингвистические механизмы иностранных языков, в частности английского и узбекского, в управленческой речи. В исследовании рассматриваются процессы формирования речи, взаимосвязь языка и мышления, а также вопросы эффективного использования языковых средств в управленческой коммуникации. Кроме того, проводится сравнительный анализ психолингвистических особенностей английского и узбекского языков с целью выявления факторов, повышающих эффективность управленческой речи. Результаты исследования имеют важное значение для развития коммуникативной компетенции в сфере управления.



Ключевые слова: управленческая речь, психолингвистика, английский язык, узбекский язык, коммуникативная компетенция, речевая деятельность, язык и мышление, управленческая коммуникация.

Abstract. This scientific article analyzes the psycholinguistic mechanisms of foreign languages, particularly English and Uzbek, in managerial speech. The study examines the processes of speech formation, the relationship between language and thinking, and the effective use of linguistic tools in management communication. Furthermore, the psycholinguistic features of English and Uzbek are compared to identify factors that enhance the effectiveness of managerial discourse. The findings of the research contribute to the development of communicative competence in management practices.

Keywords: managerial speech, psycholinguistics, English language, Uzbek language, communicative competence, speech activity, language and thinking, management communication.

Boshqaruv nutqi — bu rahbarlarning tashkilot ichida buyruq, ko'rsatma, tavsiya va boshqa nutqiy harakatlar orqali xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonidir. Nutqiy aktlar nazariyasiga ko'ra (Austin, 1962; Searle, 1969), til axborot almashish vositasi bo'lishdan tashqari, ijtimoiy muhitni faol shakllantiruvchi quroldir. Boshqaruv nutqida direktivlar (buyruq, ko'rsatma, talab) alohida o'rin tutadi. Direktivlar — tinglovchini biror ishni bajarishga undovchi nutqiy aktlar bo'lib, ularning samaradorligi tilning psixolingvistik mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq. Rahbarning nutqiy strategiyalari uning kognitiv tuzilmalari, madaniy qarashlari va til kompetensiyasi bilan belgilanadi. Bugungi globallashtirish jarayonida boshqaruvchilik faoliyatida samarali nutq muhim omillardan biri hisoblanadi. Rahbarning nutqi nafaqat ma'lumot uzatish vositasi, balki boshqaruv mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi. Psixolingvistik nuqtai nazaridan boshqaruv nutqi inson tafakkuri, til va muloqot jarayonlarining uyg'unligi asosida shakllanadi.



A.A. Leontyev psixolingvistika til orqali tafakkur va nutq faoliyatining o'zaro aloqasini o'rganadigan fan ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, nutq faoliyati inson ongidagi psixologik jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir (Leontyev, 2003). Shu nuqtai nazardan, boshqaruvchilik nutqida rahbarning psixologik ta'sir ko'rsatish qobiliyati muhim o'rin egallaydi. Psixolingvistika til va tafakkur o'rtasidagi aloqani o'rganadi. Zalevskaya A.A. fikriga ko'ra, nutq ishlab chiqish jarayoni inson ongida bosqichma-bosqich amalga oshadi: rejalashtirish, kodlash va ifodalash bosqichlari mavjud (Zalevskaya, 2005). Rahbar nutqida aynan shu jarayonlar muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tilni egallash nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki kognitiv va metakognitiv ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Metakognitsiya — bu fikrlash ustida fikrlash, ya'ni o'z fikrlash jarayonlarini kuzatish va boshqarish qobiliyatidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki tilli shaxslar (bilinguals) etnik qarashlardan kamroq ta'sirlanadilar. Biroq, ular o'zlarining kommunikatsiya haqidagi metakognitsiyalarini ona tilida so'zlashuvchilarnikiga moslashtirishda unchalik muvaffaqiyatli bo'lmasligi mumkin. Tarasov E.F. boshqaruv nutqida kommunikativ strategiyalarni to'g'ri tanlash muhimligini ta'kidlaydi. Rahbar nutqi aniq, qisqa va ta'sirchan bo'lishi kerak (Tarasov, 2004). Ingliz tilida boshqaruv nutqining psixolingvistik mexanizmlari. Ingliz tilida boshqaruv nutqi odatda to'g'ridan-to'g'ri va aniq ifodalarga asoslanadi. H.D. Brown ingliz tilidagi muloqot madaniyatida aniqlik va lo'ndalik ustuvor ekanligini ta'kidlaydi (Brown, 2007). Masalan: "Let's focus on the main objective"

"We need to improve productivity". Bu kabi iboralar rahbar nutqida motivatsion ta'sir ko'rsatadi.

David Crystal ingliz tilining kommunikativ funksiyasi yuqori ekanligini ta'kidlab, rahbar nutqida qisqa gaplar samaraliroq bo'lishini aytadi (Crystal, 2005). George Yule esa ingliz tilida pragmatik ma'no muhimligini ta'kidlaydi. Rahbar nutqida kontekst muhim o'rin tutadi (Yule, 2010).

O'zbek tilida boshqaruv nutqining psixolingvistik mexanizmlari. O'zbek tilida boshqaruv nutqi ko'proq madaniy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslanadi.



Mahmudov N. o'zbek nutq madaniyatida hurmat, muloyimlik va ijtimoiy masofa muhim ekanligini ta'kidlaydi (Mahmudov, 2013). Rahmatullayev Sh. o'zbek tilida nutqning ohangdorligi va hurmat shakllari muhim ekanligini ta'kidlaydi (Rahmatullayev, 2006). Safarov Sh. pragmalingvistika nuqtai nazaridan o'zbek nutqida yashirin ma'no muhim o'rin tutishini aytadi (Safarov, 2008).

Nutq va hokimiyat munosabatlari. Norman Fairclough nutq va hokimiyat o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. Uning fikricha, rahbar nutqi boshqaruv vositasi hisoblanadi (Fairclough, 2001). Van Dijk esa diskurs orqali rahbar ijtimoiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi (Van Dijk, 2008). Robbins S.P. tashkilotlarda samarali rahbar nutqi motivatsiya va jamoa samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi (Robbins, 2009). Goleman D. esa emotsional intellekt rahbar nutqida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi (Goleman, 2000). Boshqaruvchilik nutqida ingliz va o'zbek tillarining psixolingvistik mexanizmlari bir-biridan farq qiladi. Ingliz tilida aniqlik, lo'ndalik va to'g'ridan-to'g'ri nutq ustuvor bo'lsa, o'zbek tilida hurmat, madaniy qadriyatlar va yashirin ma'no ustuvor hisoblanadi. Rahbar nutqining samaradorligi psixolingvistik mexanizmlarni to'g'ri qo'llashga bog'liq. Zamonaviy boshqaruvda ikki tilli kommunikatsiya muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Leontyev A.A. Psixolingvistika asoslari. – Moskva: Smysl, 2003.
2. Zalevskaya A.A. Psixolingvistika. – Moskva: AST, 2005.
3. Tarasov E.F. Psixolingvistika asoslari. – Moskva: Nauka, 2004.
4. Cambridge University Press, 1969.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008.
6. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent, 2013.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006.

